

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

6

2023



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rincbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 424 sahifa, 30-iyun, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

## Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rincbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rincbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rincbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Resp. Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rincbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YomMMIB birinchi prorektori

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rincbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

## Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

O'zR Tabiat resurslari vazirligi,

O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining

2023-yil 1-apreldagi 336/3-soni qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

Sanoat korxonalarida energiyadan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari .....	6
<b>Buzrukxonov Sardorxon Sarvarxon o'g'li</b> , mustaqil izlanuvchi	
Klasterlarni rivojlantirishda fermer xo'jaliklarining strategik boshqaruvi .....	11
<b>Karimova Nilufar</b> , tayanch doktarant	
Application of Information and Communication Technology to Promote Economic Development of Tourism Services in Uzbekistan .....	16
<b>Peng Xinge</b> , PhD Researcher	
O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanishning asosiy yo'nalishlari.....	21
<b>Xotamov Ibodulla Sadullayevich</b> , i.f.n., professor, <b>Najmiddinov Yakhyo Fazliddin o'g'li</b> , kafedra assistenti	
Suv ta'minot korxonalarida biznes jarayonlari bo'yicha boshqaruv hisobi tizimida hisob yuritishning xususiyatlari.....	28
<b>Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich</b> , PhD, katta o'qituvchi	
O'zbekiston ichki oziq-ovqat tovarlari bozorini to'ldirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	31
<b>Azlarova Munira Muhammad Amin qizi</b> , tadqiqotchi	
Assessing the Implementation of Sustainable Practices in Higher Education Institutions to Drive the Transition towards a Green Economy: A Management Perspective .....	40
<b>Kuzikulova Dilfuza</b>	
Qualitative functional development in industrial production.....	49
<b>Ziyayeva Mukhtasar Mansurdjanovna</b> , TSUE, DSc, assistant professor	
Temir yo'l transportini mahalliylashtirishni moliyalashtirish mexanizmning hozirgi holati.....	54
<b>Xamrayev Djamshid Panjiyevich</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Enhancing Education Management for Green Development in Engineering Programs: Strategies, Challenges, and Outcomes.....	61
<b>Eshbayev Oybek</b> , Department of English Language	
Exploring the Role of Effective Management Practices in Achieving a Sustainable Green Economy.....	68
<b>Rozikov Ravshan</b> , Department of English Language	
Enhancing Vocational Competence of Future Economists through English Language Lessons in the Context of the Green Economy.....	76
<b>Kurbanova Nigina</b> , Department of English Language	
Empirical test of regional economic innovation and development along the Belt and Road .....	85
<b>Kalonov Mukhiddin Bahridinovich</b> , professor	
<b>Shao Junling</b> , PhD student, researcher	
Analysis of the Impact of Cross border Investment and International Economic Integration.....	90
<b>Zhao shenghan</b>	
Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishda bank moliya texnologiyalarining ahamiyati.....	96
<b>Abduraximova Dilora Karimovna</b> , PhD	
Rivojlangan mamlakatlarda bilimlar iqtisodiyoti konsepsiyasidan samarali foydalanish yo'nalishlari.....	101
<b>Xasanxonova Nodira Isametdinovna</b> , PhD	
Biznes inkubator orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini shakllantirishda "yashil logistika" tamoyillaridan foydalanish.....	107
<b>Narzullayev Shodiyor Eshpulatovich</b> , kafedra assistent	
Innovatsion faoliyatning asosi – intelektual salohiyat .....	112
<b>Kaxorova Anora Nusratovna</b> , kafedra assistenti	
Ijro hokimiyyati organlari faoliyatini baholash mezonlari tushunchasi va turlari .....	118
<b>Qahramon Usmanovich Umidullayev</b> , yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
Temir yo'l transportida mahalliylashtirishni moliyalashtirishning huquqiy asoslari.....	124
<b>Xamrayev Djamshid Panjiyevich</b> , mustaqil tadqiqotchisi	
Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot: tayyorlash va avtomatlashtirish .....	129
<b>Tulayev Mirzakul Salamovich</b> , dotsent	
O'zbekistonda kichik tadbirkorlikni rivojlantirishning samarali yo'llari .....	133
<b>Sh. B. Babayev</b> , dotsent; <b>M. R. Qulmetov</b> , dotsent	
Sug'urta kompaniyalari to'lov qobiliyatini kengaytirish yo'nalishlari .....	138
<b>G'aniyev Shahriiddin Vohidovich</b> , professor, i. f. d. (DsC), <b>Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich</b> , i. f. f. d. (PhD)	



Повышении роли цифровой трансформации банков в современном этапе развития экономики .....	144
<b>Жиянова Наргиза Эсанбоена</b> , к.э.н., проф., <b>Азимжонова Малика Шавкат қизи</b> , специалист первой категории	
To'qimachilik korxonalarida tejamkor ishlab chiqarishni tashkil etishda mehnat resurslari va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligi .....	150
<b>Yaxyayeva Inobat Karimovna</b> , dotsent, PhD	
Liquidity and recent changes of government securities market in the United States, the United Kingdom and Japan.....	154
<b>Kholikov Khamidulla Vaydulla ugli</b>	
"История экономических учений" как основная дисциплина в подготовке конкурентоспособных кадров экономистов .....	160
<b>Хакимов Назар Хакимович</b> , доктор философских наук, профессор	
The importance of strategic management and strategic leadership .....	166
<b>Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li</b>	
Exploring the Role of Higher Education in Fostering Green Economy Transition: A Systematic Analysis of Curriculum Integration and Skill Development.....	170
<b>Xasanova Zarina</b> , Department of English Language	
Inson kapitalini joriy etish tizimi va xodimlar daromadi o'rtasidagi o'zaro ta'sir tahlili.....	178
<b>M. O. Hamroqulov</b> , katta o'qituvchi	
Yetuk mutaxassis tayyorlash – kelajak uchun sarmoya.....	185
<b>Farhod Bagibekovich Xalimbetov</b>	
Analysis of new established and liquidated enterprises as a basis for jobs (On the example of Samarkand region) .....	188
<b>Saidov Nurali Rakhimovich</b>	
Basing and forecasting the priorities of introducing innovative medical services in Khorezm region. ....	193
<b>S. M. Rakhimova</b>	
Оптимизации операционной стратегии и повышение экономического потенциала хлопково-текстильных кластеров .....	197
<b>Джурабаев Отабек Джурбаевич</b> , доцент	
Soliq to'g'risidagi qonunlarni buzganlik uchun yuridik javobgarlikka tortishning huquqiy asoslari....	204
<b>Hakimov Feruz Xurshid o'g'li</b> , talaba	
Hayot sug'urtasining rivojlanishi va uning ijtimoiy hayotdagি o'rni .....	207
<b>Baratova Dinora Alisherovna</b> , katta o'qituvchisi	
Edge Computing texnologiyalari .....	213
<b>Qulmatova S.</b> , PhD, katta o'qituvchi; <b>Karimov Botir</b> , katta o'qituvchi	
Aksiyadorlik kapitalida davlat ulushini qisqartirish va xususiylashtirish holati .....	218
<b>Mamatov Bahromjon Shavkatovich</b> , PhD, dotsent	
Xususiy maktablarning ijobiy imijini shakllantirishning nazariy jihatlari.....	223
<b>Odilova Sitora Sayfitdin qizi</b> , katta o'qituvchi	
Tomorqa xo'jaliklarida oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish hajmining prognoz ko'rsatkichlari .....	228
<b>Saydullayeva Fotima Jozilovna</b> , assistant	
O'zbekiston sug'urta bozori rivojlanishining o'ziga xos xususiyati.....	235
<b>Xasanov Xayrulla Nasrullahovich</b>	
O'zbekiston yoshlarida volontorlik faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy mexanizmlari: jahon va mahalliy tajriba .....	241
<b>Qudratov Anvarmirzo Murodillayevich</b> , siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
Культурологический аспект преподавания русскоязычной литературы Казахстана в ВУЗе ....	247
<b>Оспан Айзада Бейсенқызы</b> , докторант 2 курса	
Tijorat banklarida kreditlash riskini boshqarish holati tahlili.....	251
<b>Mirzoyev Feruz Mamurjonovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
Tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiyalashning zamonaviy holati va tendensiyalari .....	259
<b>Abdualim Abdujabbor o'g'li Abdurazzoqov</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Significance and prospects of using economic-mathematical models in analysis of our country's economic growth .....	267
<b>Rasulov Jamshid Shokir o'g'li</b>	
Bank daromadlilik ko'rsatkichlariga makroiqtisodiy omillar ta'siri.....	274
<b>Madraimov Xabibulla Madaminovich</b> , assistant o'qituvchi	



Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning ilmiy konsepsiyalari .....	282
<b>Mamatov Mamajan Axmadjonovich</b> , i.f.n., dotsent	
Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirishning makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlash .....	288
<b>Ergashova Nargiza Boboxonovna</b> , talaba	
Budget-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishning nazariy yondashuvlari .....	296
<b>Hakimjon Hakimov</b> , tadqiqotchi	
Innovatsion-brokerlik faoliyatini rivojlantirishda moliyaviy injiniringni ahamiyatini oshirish istiqbollari.....	301
<b>Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich</b> , dotsent	
O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirishda ta'lim xizmatlari bozorining ahamiyati .....	306
<b>Babadjanova Malika Ruzimovna</b> , assistent o'qituvchi	
O'zbekiston sug'urtalovchilarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda qayta sug'urtaning roli .....	312
<b>Kamilov Baxramjon Umardjonovich</b>	
Shaxs ma'nnaviy-axloqiy tarbiyasi hamisha muhim.....	317
<b>Bekdavlat Aliyev</b> , professor, falsafa fanlari doktori	
Jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortishning zamonaviy tendensiyalari .....	321
<b>O. T. Nurmatov</b> , PhD	
Milliy mahsulotning mazmuni, tarkibiy qismlari va harakat shakllarini tadqiq qilishning nazariy-uslubiy asoslari.....	327
<b>Abdullayev Suyun Artiqovich</b> , O'zbekiston jahon tillari universiteti prorektori	
O'zbekiston Respublikasidagi yirik tijorat banklari kreditlash amaliyotining ekonometrik tahlil va natijalari.....	335
<b>Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatda ichki nazorat va auditning xususiyatlari.....	346
<b>Saidaxmedova Aida Mirzayevna</b> , katta o'qituvchi	
Yangi O'zbekistonda yog'-moy korxonalari personalini boshqarishni takomillashtirish.....	352
<b>D. A. Azlarova</b> , PhD	
The Intersection of Sustainability and Economic Development:	
Balancing Environment and Business Needs .....	360
<b>Kholikova Rukhsora Sanjarovna</b> , PhD, <b>Izzatulloev Bakhodir Ubaydullo ugli</b> , student	
Davlat-xususiy sheriklikni tashkil etishning huquqiy-institutsional mexanizmlari .....	364
<b>Zuhra Abdikarimova</b> , tayanch doktorant	
Zamonaviy portfel nazariyasi asosida samarali portfeli shakllantirish.....	370
<b>Sindarov Fazliddin Qahramonovich</b> , kafedra assistenti	
Iste'molchilarning qandolat mahsulotlariga bo'lgan talablarini raqamli platformalar orqali tadqiq qilish yo'llari .....	376
<b>To'ychiyeva Vasila Faxriddin qizi</b> , assistent	
Investitsiya muhiti va faoliyati natijalarini baholash uslublari.....	381
<b>B. K. Tuxliyev</b> , professor	
Sanoat korxonalarida resurslar salohiyatini tizimli tahlil qilish – korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash omili sifatida.....	386
<b>Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi</b> , PhD	
Mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi tahlili (Xorazm viloyati misolida).....	391
<b>Aminboy Sa'dullayev</b> , i.f.n., dotsent, <b>Dilshod Vaisov</b> , magistr, <b>Farhod Egamberganov</b> , magistr	
Xizmatlar ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortish amaliyoti va uni takomillashtirish.....	397
<b>Pardayev Jamshid Muzaffarovich</b> , tadqiqotchi	
Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar: yutuqlar, kamchiliklar va yechimlari.....	403
<b>Muxtidinova Kamola Alisherovna</b> , PhD	
Directions of attracting foreign capital and specific characteristics of the eurobond transaction.....	407
<b>Gafurov Olimjon</b> , teacher, <b>Kholmuminov Humoyun</b> , teacher, <b>Abrueva Sevinch</b> , student,	
Формирование международных систем бухгалтерского учета в условиях глобализации экономики .....	411
<b>Ф. Т. Абдувахидов</b> , доцент, <b>А. Ю. Нурмухаммедов</b> , доцент	
Qishloqda turizmni tashkil etishning mamlakatimiz taraqqiyotiga ta'siri .....	417
<b>Jo'rayeva Nargiza Abduvohidovna</b> , dotsent	
Public debt, poverty and economic growth of Uzbekistan .....	420
<b>Mirzamakhmudov Marufjan Mahamadsharif ugli</b>	



# MINTAQADA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK RIVOJLANISHI TAHLILI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)

**Aminboy Sa'dullayev**  
i.f.n, dotsent URDU



**Dilshod Vaisov**  
magistr URDU



**Farhod Egamberganov**  
magistr URDU

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Xorazm viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish xususiyatlari tahlil qilingan, statistik ma'lumotlar asosida Respublika ko'rsatkichlari bilan taqqsolaniib, zaruriy xulosalar qilingan.

**Kalit so'zlar:** kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, YaHM, yalpi sof tushum, yalpi tannarx, yalpi davr xarajatlari, yalpi foya, asosiy kapitalga yalpi investitsiyalar.

**Аннотация:** В данной статье анализирован особенности развития малого и частного предпринимательства в Хорезмской области, сделан сравнительный анализ региональных показателей с показателями Республики Узбекистан с соответствующими выводами.

**Ключевые слова:** малый бизнес и частного предпринимательства, валовой региональный продукт, валовая (совокупная) реализация, валовая (совокупная) себестоимость, валовая (совокупная) расходы периода, валовая (совокупная) прибыль, валовая (совокупная) инвестиция в основной капитал.

**Abstract:** This article analyzes the features of the development of small and private entrepreneurship in the Khorezm region, makes a comparative analysis of regional indicators from the indicators of the Republic of Uzbekistan with relevant conclusions.

**Key words:** small business and private entrepreneurship, gross regional product, gross (total) sales, gross (total) cost, gross (total) expenses of the period, gross (total) profit, gross (total) investment in fixed assets.



## KIRISH

Xorazm viloyati O'zbekistonning ko'pgina mintaqalari kabi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishining bo'yicha yetarli darajada salohiyatga ega bo'lib, bugungi kunda viloyatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga asosiy makroiqtisodiy muammolar hisoblangan ishsizlikni bartaraf etish hamda aholi daromadlarini oshirishdagi istiqbolli yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mamlakatimiz va mintaqalar milliy xususiyatlarni inobatga olgan KBXTni, xususan kichik korxonalarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy, tashkiliy-huquqiy va metodologik asoslari respublikamizning iqtisodchi olimlaridan S. S. G'ulomov, B. Y. Xodiyev, S. K. Salayev, U. V. G'ofurov, M. M. Muxammedov, N. Q. Muradova, B. Sh. Safarov, M. E. Po'latov, G. M. Shadiyeva, Sh. A. Sultanov, Z. S. Artiqov, A. P. Hazratov, L. U. Maxmudov., M. A. Qodirov, M. T. Asqarova, A. T. Axmediyeva., R. H. Ayupov, G. R. Boltaboyeva, Z. A. Xakimov, N. N. Shamshiyeva, K. X. Muftaydinov, F. T. Abduraximova, M. P. Eshov hamda xorijiy olimlardan Deniz Timurcin, N. Soldatova va boshqalarning asarlarida keng yoritilgan. Ushbu ilmiy ishlarda kichik korxnalarining rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari, sohada KBXTni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash masalalariga ko'proq e'tibor qaratilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini tahlil qilishda ushbu soha subyektlarining yalpi hududi mahsulotdagi o'rni va iqtisodiy tarmoqlar aylanmasidagi ulushini o'rganish tahlil qilish asosiy tadqiqot metodologiyasi sifatida ishlataligan. Shuningdek, mavzuni chuqurroq o'rganish hamda amaliy xulosalar qilish maqsadida asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar : kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, YaHM, yalpi sof tushum, yalpi tannarx, yalpi davr xarajatlari, yalpi foyda, asosiy kapitalga yalpi investitsiyalar bo'yicha Respublika va viloyat ko'rsatkichlari taqqoslama tahlili o'tkazilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Viloyatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini rivojlantirish bo'yicha qator chora tadbirlar amalga oshirilishi natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning viloyat YaHM va boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlardagi ulushi ham oshishi ta'minlangan. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning viloyat YaHM-dagi ulushi 2021-yilga kelib 73,9 foizni tashkil etgan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 2 972,0 mlrd so'mni (2018-yilga nisbatan o'sish 1,24 baravarni), jami hududi sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 30,9 foizni tashkil etgan. Hududiy qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlarining umumiyligi hajmidagi ulushi 96,9 foizni, ishlab chiqarish hami esa 19699,8 mlrd so'mni (2018-yilga nisbatan o'sish 1,55 baravarni) tashkil etgan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 3 725,4 mlrd so'mni (2018-yilga nisbatan o'sish 2,207 baravarni), umumiyligi hajmidagi ulushi 88,1 foizni tashkil etgan. 2021-yil davomida hududiy asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushi 55,6 foizni tashkil etib kiritilgan investitsiyalar hajmi 4 606,8 mlrd so'mni tashkil qilgan (2018-yilga nisbatan o'sish 3,125 baravarni).

Hududdagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasi hajmi 2021-yilda 9 183,5 mlrd so'mni (2018 yilga nisbatan o'sish 2,2 baravarni), hududiy chakana savdo aylanmasidagi ulushi 87,1 foizni tashkil etgan. Hududda, 2021 yil davomida ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) bozor xizmatlari hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushi 64,7 foizni, bozor xizmatlari hajmi 5 390,3 mlrd so'mni (2018 yilga nisbatan o'sish 1,71 baravarni) tashkil etgan. Hududda 2021-yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan hududiy avtomobil transportida yuk va yo'lovchi tashish hajmidagi ulushi mos ravishda 81,3 va 94,1 foizni tashkil etgan. Hududiy kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2021-yilda amalga oshirilgan tovar va xizmatlar eksporti 119,7 mln AQSH dollarni (2018-yilga nisbatan o'sish 1,556 baravarni), kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning hududiy eksport hajmidagi ulushi 51,8 foizni, hududiy importdagi ulushi 74,7 foizni tashkil etgan. Hududiy kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining importi 2021-yilda 213,5 mln AQSH dollarni tashkil qilgan (2018-yilga nisbatan o'sish 1,309 baravarni). Hududiy kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida ishlovchi band aholi soni 2021-yilda 574,3 ming kishini tashkil qilib jami hududdagi band bo'lganlar sonidagi ulushi 79,1 foizga teng bo'lgan<sup>1</sup>.

Xorazm viloyatida 2022-yil 1-yanvar holatiga ro'yxatdan o'tgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 23324tani tashkil qilgan (2019-yil 1-yanvarga nisbatan o'sish 1,854 baravarni), ya'ni Respublikamizdagi ro'yxatdan o'tgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning 4,8 foizi viloyatga to'g'ri kelgan. Ushbu keltirilgan makroiqtisodiy ko'rsatichlar tahlili ham viloyat iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy

1 "O'zbekistonda kichik tadbirkorlik" statistik to'plam. Toshkent - 2022



tadbirkorlik subyektlari o'rni va ahamiyati qay darajada ekanligini tavsiflaydi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari sonini oshishi va rivojlanishi natijasida ular o'tasidagi raqobat darajasi kuchayib, raqobat muhit va raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari yaxshilanmoqda.

Shu o'rinda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining mintaqaviy, iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlilini o'tkazish, ham mazkur sohaning mintaqqa iqtisodiyotidagi ahamiyatini o'rganish, ham qiyosan mintaqqa kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining respublikadagi umumiy kichik korxonalar raqobatbardoshlik darajasiga nisbatan taqqoslash, baholash imkonini beradi.

Xususan, 1-jadvalda 2018–2021-yillar mobaynida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni bo'yicha O'zbekiston Respublikasi va Xorazm viloyati ko'rsatkichlari o'zaro taqqoslangan. Ushbu tahlildan ko'rindaniki, Xorazm viloyatidagi kichik korxonalarining ulushi mazkur yillar davomida respublikada o'ttacha 4,61 foizni tashkil qilgani, ushbu ko'rsatkich yillar davomida yaxshilanib borayotganini ko'rishimiz mumkin. Biroq, ming kishiga nisbatan o'ttacha faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni bo'yicha bo'yicha viloyat ko'rsatkichlari respublika umumiy ko'rsatkichlarining o'ttacha 83,75 foizini tashkil qilmoqda. Yangi kichik korxonalarini ishga tushirish nafaqat respublika miqyosidagi ko'rsatkichlarga yetishish, balki mintaqada raqobat muhitini yaxshilash, iqtisodiy ko'rsatkichlar oshishi, bandlik darajasi va ishbilarmonlik darajasini yaxshilanishiga sabab bo'lishi mumkin.

**1 - jadval:** Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va firmalar soni, sof tushumi va yalpi tannarxining taqqoslama tahlili<sup>2</sup>

Yillar		2018	2019	2020	2021
Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, dona	O'zbekiston Respublikasi	262930	334767	411203	462834
	Xorazm viloyati	11815	15453	18875	21984
Viloyatning ulushi, foizda		4,5	4,6	4,6	4,7
Jon boshiga faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, dona (ming kishiga nisbatan)	O'zbekiston Respublikasi	8,1	10,1	12,1	13,4
	Xorazm viloyati	6,5	8,4	10,1	11,6
Viloyatning respublika ko'rsatkichlariga nisbati, foizda		81,3	83,6	83,4	86,7
Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar sof tushumi, mlrd. so'm	O'zbekiston Respublikasi	184609,6	249862,5	283972,4	418280,2
	Xorazm viloyati	5455,5	7336	9030,4	12258,5
Viloyatning ulushi, foizda		3	2,9	3,2	2,9
O'rtacha bir subyektga nisbatan sof tushum, mln. so'm	O'zbekiston Respublikasi	702,1	746,4	690,6	903,7
	Xorazm viloyati	461,7	474,7	478,4	557,6
Viloyatning respublika ko'rsatkichlariga nisbati, foizda		65,8	63,6	69,3	61,7
Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar yalpi tannarxi, mlrd. so'm	O'zbekiston Respublikasi	135629,5	195373,4	233212,4	349330,4
	Xorazm viloyati	4235,4	6000,2	7630,3	10477,1
Viloyatning ulushi, foizda		3,1	3,1	3,3	3
O'rtacha bir subyektga nisbatan yalpi tannarx, mln. so'm	O'zbekiston Respublikasi	515,8	583,6	567,1	754,8
	Xorazm viloyati	358,5	388,3	404,3	476,6
Viloyatning respublika ko'rsatkichlariga nisbati, foizda		69,5	66,5	71,3	63,1

Keyingi ko'rsatkichlar, 2018–2021-yillarda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar yalpi daromadi (sof tushum) bo'yicha O'zbekiston Respublikasi va Xorazm viloyati ko'rsatkichlari o'zaro taqqoslangan. Ushbu tahlildan ko'rindaniki, Xorazm viloyatidagi kichik korxonalar yalpi daromadining ulushi mazkur yillar davomida respublikada o'ttacha 3,0 foizni tashkil qilgani, ushbu ko'rsatkich yillar davomida yaxshilanib borayotganini ko'rishimiz mumkin. Shunday xulosa qilish ham mumkinki, viloyatda bozor sig'imi kichikligi tufayli daromad qilish imkoniyatlari ham birmuncha cheklangan. O'rtacha bitta subyektga nisbatan kichik korxona va mikrofirmalar sof tushumi bo'yicha bo'yicha viloyat ko'rsatkichlari respublika umumiy ko'rsatkichlarini o'ttacha 65,05 foizini tashkil qolmoqda. Jadvaldan yana shuni bilishimiz mumkinki, respublika bo'ylab o'rtacha tushum keskin oshganligini, xususan, 2021-yilda o'rtacha bitta kichik korxonaning savdo aylanmasi 0,9 mlrd so'mga yetganini ko'rish mumkin, viloyatimizda esa ushbu ko'rsatkich 0,557 mlrd so'mni tashkil etgan. Bunda

2 "O'zbekistonda kichik tadbirkorlik" statistik to'plam (Toshkent – 2022) asosida mualliflar ishlansMASI



2018–2021-yillarda o‘rtacha farq qariyb 35 foizni, viloyatdagi bitta subyekt sof tushumu respublikada bitta kichik firma o‘rtacha tushumining 65 foizini tashkil qilmoqda. Ushbu tahlil orqali shuni qo’shimcha xulosalash mumkin-ki, mintaqadagi kichik korxonalar o‘z raqobatbardoshligini oshirgan holda faqatgina mintaqaga bozorida faoliyat ko’rsatmasdan balki respublikadagi boshqa mintaqaga bozorlar hamda eksport bozorlarga ham chiqishi orgali ham o‘z raqobatbardoshligini oshirishi ham mintaqaviy iqtisodiy ko’rsatkichlarga ijobiyligi ta’sir ko’rsatishi mumkin.

2018–2021-yillarda faoliyat ko’rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar yalpi tannarxi (ishlab chiqarish xarajatlari) bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi va Xorazm viloyati ko’rsatkichlari o‘zaro taqqoslangan. Ushbu tahlildan ko‘rinadiki, Xorazm viloyatidagi kichik korxonalar ishlab chiqarish xarajatlarining ulushi mazkur yillar davomida respublikada o‘rtacha 3,12 foizni tashkil qilganini ko‘rishimiz mumkin. O‘rtacha bitta subyektga nisbatan kichik korxona va mikrofirmalar ishlab chiqarish xarajatlari bo‘yicha viloyat ko’rsatkichlari respublika umumiyo‘ ko’rsatkichlarini o‘rtacha 67,41 foizini tashkil qolmoqda, ya’ni mintaqadagi kichik korxonalar 32,59 foiz kamroq xarajat qilganligi sababli ham kamroq daromad qilishgan. Jadvaldan yana shuni bilishimiz mumkinki, respublika bo‘ylab, o‘rtacha yalpi tannarx viloyatimizga qaraganda keskin oshganligini ko‘rish mumkin, viloyatimizda esa ushu ko’rsatkich har yil o‘rtacha 5 (besh) foizni tashkil etgan. Bunda, 2018–2021-yillarda viloyatning respublika ko’rsatkichlariga nisbatan o‘rtacha farq qariyb 32,59 foizni, viloyatdagi bitta subyekt sof tushum respublikada bitta kichik firma o‘rtacha tushumining 67,41 foizini tashkil qilmoqda.

2-jadvalda 2018–2021-yillarda faoliyat ko’rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar davr xarajatlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi va Xorazm viloyati ko’rsatkichlari o‘zaro taqqoslangan. Ushbu tahlildan ko‘rinadiki, Xorazm viloyatidagi kichik korxonalar davr xarajatlarining ulushi mazkur yillar davomida respublikada o‘rtacha 2,7 foizni tashkil qilganini ko‘rishimiz mumkin. O‘rtacha bitta subyektga nisbatan kichik korxona va mikrofirmalar ishlab chiqarish xarajatlari bo‘yicha viloyat ko’rsatkichlari respublika umumiyo‘ ko’rsatkichlarini o‘rtacha 58,48 foizini tashkil qolmoqda, ya’ni mintaqadagi kichik korxonalar 41,52 foiz kamroq ma’muriy va ope-ratsion xarajatlarni amalga oshirgan. Jadvaldan yana shuni tahlil qilishimiz mumkinki, o‘rtacha davr xarajatlari viloyatimiz ko’rsatkichlari respublika ko’rsatkichlariga nisbatan ko‘proq oshgan .

**2 - jadval:** Faoliyat ko’rsatayotgan kichik korxona va firmalar davr xarajatlari, yalpi foydasi, jami ishlovchilarining taqqoslama tahlili

Yillar		2018	2019	2020	2021
Faoliyat ko’rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar yalpi davr xarajatlari, mlrd. so‘m	O‘zbekiston Respublikasi	21612,8	29593,4	30729,4	43977,8
	Xorazm viloyati	507,4	770,3	888,6	1301,4
Viloyatning ulushi, foizda		2,3	2,6	2,9	3
O‘rtacha bir subyektga nisbatan davr xarajatlari, mln. so‘m	O‘zbekiston Respublikasi	82,2	88,4	74,7	95
	Xorazm viloyati	42,9	49,8	47,1	59,2
Viloyatning respublika ko’rsatkichlariga nisbati, foizda		52,2	56,4	63	62,3
Faoliyat ko’rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar yalpi foydasi, mlrd. so‘m	O‘zbekiston Respublikasi	26365,6	22798	15963,3	23070
	Xorazm viloyati	688,3	533,1	396,2	504,4
Viloyatning ulushi, foizda		2,6	2,3	2,5	2,2
O‘rtacha bir subyektga nisbatan yalpi foya, mln. so‘m	O‘zbekiston Respublikasi	100,3	68,1	38,8	38,8
	Xorazm viloyati	58,3	34,5	21	22,9
Viloyatning respublika ko’rsatkichlariga nisbati, foizda		58,1	50,7	54,1	46
Faoliyat ko’rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar jami bandlar (tashqi o‘rindoshlarsiz), ming kishi	O‘zbekiston Respublikasi	1075,1	1375,2	1350,7	1403,3
	Xorazm viloyati	48,6	58,7	66,5	67,8
Viloyatning ulushi, foizda		4,5	4,3	4,9	4,8
O‘rtacha bir subyektga nisbatan jami bandlar, mln. so‘m	O‘zbekiston Respublikasi	4,1	4,1	3,3	3
	Xorazm viloyati	4,1	3,8	3,5	3,1
Viloyatning respublika ko’rsatkichlariga nisbati, foizda		100,6	92,5	107,3	101,7

Manba: O‘zbekistonda kichik tadbirkorlik” statistik to‘plam (Toshkent – 2022) asosida mualliflar ishlanmasi



Yalpi foya (soliq to'lagunga qadar foya bilan bog'liq bo'lib, 2018–2021-yillarda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar yalpi foya (soliq to'lagunga qadar foya) bo'yicha O'zbekiston Respublikasi va Xorazm viloyati ko'rsatkichlari o'zaro taqqoslangan. Ushbu tahlildan ko'rindiki, Xorazm viloyatidagi kichik korxonalar yalpi foydasining ulushi mazkur yillar davomida respublikada o'rtacha 2,4 foizni tashkil qilgani, ushbu ko'rsatkichlar yillar davomida pasayib borayotganini (2 baravardan ko'proq qisqargan) ko'rishimiz mumkin. Shunday xulosa qilish ham mumkinki, viloyatdagi kichik korxonalar o'rganilayotgan yillarda foya olishdan ko'ra daromadni oshirish maqsadida xarajatlarga yoki o'zlashtirilgan kredit mablag'larini qaytarishga ko'proq ahamiyat bergen bo'lislari mumkin. O'rtacha bitta subyektga nisbatan kichik korxona va mikrofirmalar yalpi foydasini bo'yicha bo'yicha viloyat ko'rsatkichlari respublika umumiy ko'rsatkichlarini o'rtacha 52,31 foizini tashkil qolmoqda. Jadvaldan yana shuni bilishimiz mumkinki, respublika bo'ylab o'rtacha yalpi foya keskin kamayganligini, xususan, 2021-yilda o'rtacha bitta kichik korxonaning yalpi foydasini 2018-yildagi 100 mln so'mdan 2021-yilda 49 mln so'mga tushganini ko'rish mumkin, ushbu holat 2020–2021-yillardagi "koronavirus pandemiyasi" bilan bog'liqligini xulosalashimiz mumkin.

2018–2021-yillarda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar ishlovchi band xodimlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi va Xorazm viloyati ko'rsatkichlari o'zaro taqqoslangan. Ushbu tahlildan ko'rindiki, Xorazm viloyatidagi kichik korxonalarda band bo'lganlar ulushi ancha yuqori bo'lib, mazkur yillar davomida respublikada o'rtacha 4,64 foizni tashkil qilganini ko'rishimiz mumkin. O'rtacha bitta subyektga nisbatan kichik korxona va mikrofirmalarda ishlovchilar soni bo'yicha viloyat ko'rsatkichlari respublika umumiy ko'rsatkichlaridan o'rtacha 0,51 foiz yuqori bo'lmoqda, ya'ni mintaqadagi kichik korxonalar ko'proq xodimlarni bandligini ta'minlagan. Jadvaldan yana shuni tahlil qilishimiz mumkinki, o'rtacha bir korxonaga nisbatan bandlik kamaygan bo'lib, umumi davr uchun bitta kichik korxonaga 3,63 kishidan ishlovchilar to'g'ri kelmoqda. Bu holat ham "koronavirus pandemiyasi" bilan bog'liq bo'lib, qo'shimcha ravishda kichik korxonalarda rasmiy bandlar sonini kamaytirib ko'rsatish hollari ko'p uchrashi bilan izohlanishi mumkin.

**3-jadval:** Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va firmalar tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqqoslama tahlili

Yillar	Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar asosiy kapitalga kiritgan investitsiyalari, mlrd so'm		Viloyatning ulushi, foizda	O'rtacha bir subyektga nisbatan asosiy kapitalga kiritgan investitsiyalari, mln so'm		Viloyatning respublika ko'rsatkichlariga nisbati, foizda
	O'zbekiston Respublikasi	Xorazm viloyati		O'zbekiston Respublikasi	Xorazm viloyati	
2018	33111,9	716,2	2,2	125,9	60,6	48,1
2019	70650,2	2073,7	2,9	211,0	134,2	63,6
2020	77487,9	2173,1	2,8	188,4	115,1	61,1
2021	85221,1	2628,9	3,1	184,1	119,6	64,9

Manba: "O'zbekistonda kichik tadbirdorlik" statistik to'plam (Toshkent – 2022) asosida mualliflar ishlanmasi

3-jadval ham mos ravishda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar bilan bog'liq bo'lib, sohaning kelgusidagi asosiy iqtisodiy ko'rsarkichlariga katta ta'sir ko'rsatishi bilan ahamiyatlidir. 2018–2021-yillarda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi va Xorazm viloyati ko'rsatkichlari o'zaro taqqoslangan. Ushbu jadvaldan ko'rindiki, Xorazm viloyatidagi kichik korxonalar investitsiyalarining ulushi mazkur yillar davomida respublikada o'rtacha 2,75 foizni tashkil qilgani, ushbu ko'rsatkichlar yillar davomida o'sib borayotganini (qariyb 2 baravarga oshgan) o'rganishimiz mumkin. Shunday xulosa qilish ham mumkinki, viloyatdagi kichik korxonalar o'rganilayotgan yillarda foya olishdan ko'ra asosiy kapitalga investitsiya qilishni afzal ko'rishgan. Buning natijasida ishlab chiqarish jarayoni yoki mahsulotlar takomillashib, raqobatbardoshlik oshishiga ijobji ta'sir bo'lgan bo'lishi mumkin. O'rtacha bitta subyektga nisbatan kichik korxona va mikrofirmalar investitsiyalari hajmi bo'yicha viloyat ko'rsatkichlari respublika umumiy ko'rsatkichlarini o'rtacha 59,44 foizini tashkil qolmoqda. Bunga mintaqaning chekka hudud ekanligi, iqtisodiy resurslar va infrastrukturaning nisbatan cheklanganligi hamda iqtisodiy rivojlanish bo'yicha mamlakatimizning boshqa hududlari bilan raqobatlasha olmasligi kabi omillar o'z ta'sirini ko'rsatgan.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida mintaqamizning, ya'ni Xorazm viloyatining iqtisodiyot soha va tarmoqlari bo'yicha kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari ulushi, salmog'i hamda nisbiy o'sish ko'rsatkichlarining mamlakat bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlardan ham past ekanligini qayd qilish lozim. Ushbu holat ham mintaqada iqtisodiyoti rivoji uchun mas'ul davlat xizmatchilari, ham mintaqada faoliyat ko'rsatayotgan xodimlar, hamda mintaqadagi mavjud ilmiy salohiyat vakillari olimlar, tadqiqotchilar uchun kelgusidagi faoliyatida qo'shimcha mas'uliyat va maqsad bo'lib xizmat qiladi. Mintaqada iqtisodiyotidagi kichik biznes subyektlarining o'rni va ulushi, ularning rivojlanish ko'rsatkichlarini respublika umumiyligi ko'rsatkichlariga yetishtirish, tenglashtirish kichik firmalar va korxonalar raqobatbardoshligini ta'minlash, oshirish hamda raqobat muhitini yaxshilashga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi deb hisoblaymiz.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. «O'zbekistonda kichik tadbirkorlik 2018-2021» Statistik to'plam www.stat.uz. e-mail: gks@stat.uz
2. Eshov M.P. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi: omillar, natijalar va istiqbollar. Monografiya. – T.: «Ma'naviyat», 2017. – 80 b. ISBN 978-9943-04.
3. Turkiyede KOBllerin rekabet gucu va rekabet ustunlug'u sag'lamada kumelenmenin etkisi, deniz timurcin, t.c istanbul universitesi sosyal bilimler enstitusu iktisat anabilim dali doktora tezi, aralik 2010-ISTANBUL).
4. Солдатова Наталья Федоровна. «Основные направления повышения конкурентоспособности малых предприятий» Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва-2007., АНО ВПО ЦС РФ «Российский университет кооперации» 141014, Московская область, г Мытищи ул В Волошиной, 12

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2023. № 6**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lisingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 03.11.2022-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027



**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi 26-uy.